



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



YO‘L ODAMIGA YONDOSH OLIM

A SCIENTIST APPROACHING THE ROAD MAN

Qo‘lyiyeva Gulchehra Nazarqulovna

filologiya fanlari doktori (DSc)

Guliston davlat universiteti dotseni

E-mail: kuylievaguli@gmail.com

ORCID: 0009-0003-9827-5482

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./JBIT5151](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./JBIT5151)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada taniqli adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshevning shoir Azim Suyun hayot yo‘li, she‘riyati va ijodiga berilgan baho, shuningdek, adib ijodiy laboratoriyasiga murojaat qilingani tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *yo‘l odami, safar taassuroti, baxshiyona, xalqchillik, og‘zaki ijod, realistik tasvir, tabiatsevar shoir, maktublar.*

Annotation. *This article presents the assessment of the life, poetry and work of the poet Azim Suyun by the famous literary scholar Kazokboy Yuldoshev, as well as an appeal to the creative laboratory of the writer.*

Keywords: *traveler, travel impressions, philanthropy, folklorism, oral literature, realistic depiction, nature-loving poet, letters.*

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshevning bir qancha ilmiy asarlari dunyo yuzini ko‘rgan. Ularning har biri, nafaqat mutaxassislar, balki har bir kitobxon uchun qadrli. Olimning ilmiy maqolalarini, jumladan, tahlillarini o‘qib turib, badiiy asarni shu darajada qiyomiga yetkazib, kitobxon ko‘z oldiga keltirar darajada ko‘zdan o‘tkazadiki, ba‘zan huddi shu asarni o‘qigan bo‘lsa-da, undagi ayrim o‘ziga xosliklarni, yashirin tagma‘noni, o‘xshatish - sifatlarni sezmay, ilg‘amay ham o‘tib ketganimiz bilinib qoladi. Quyidagi ustozning sanab o‘tilgan “So‘z yolqini”, “Jilovlanmagan tafakkur mahsuli”, “Ko‘rkam so‘z yog‘dusi”(2025), “Azim Suyun shaxsiyati va ijodiy qiyofasiga chizgilar”(2025) kabi kitoblarning har qatida anglanmagan, yoki anglab turib, uni so‘zda, tilda bayon etolmagan qirralarining ustoz tomonidan o‘ta sinchkovlik bilan o‘qib, so‘zning qirra tovlanishlarini yuzaga chiqarib berganidan faqatgina hayratlanish mumkin.

Ayniqsa, 2025-yil olimning navbatdagi ma‘noli va juda chuqur tahlillari, qiziqarli estaliklarini salmoqli ikkita katta kitobda ko‘rish quvonchli hodisa bo‘ldi. Ustoz Qozoqboy Yo‘ldoshev katta shoir “Azim Suyunning shaxsiyati va ijodiy qiyofasiga chizgilari” nomli ilmiy-adabiy to‘plamini xalqchillikdan uzoqlashtirmagan holda, qadim ertaklardagi misoli qahramon oldidan chiqqan uch yo‘l: “Borsa – kelar”, “Borsa – xatar”, “Borsa – kelmas” tarzda bir oz sirli



va o'zgacha yo'lda taqdim etib, shoir ijodiy olamini shartli uch yo'nalishga o'rganganilganini ko'rish mumkin:

1. *Azim Suyun ko'nqliga yo'l;*
2. *Azim Suyunning ijod olamiga yo'l;*
3. *Shoirning shaxsiyati qo'rg'oni.*

Undan tashqari, maktublar va ijodkor shoirlarning Azim Suyunga atab yozilgan she'rlari aks etgan ikki qism:

1. *O'zga yuraklarga tutashgan yo'llar;*
2. *Ijodkorlar e'tirofi* tashkil qiladi.

Kitobning ilk kirish “*Boshlanish*” qismida, shoirning yo'l odami ekanligi, uni yaqinroqdan bilishning eng yaxshi yo'li u bilan birga safar qilish bo'lib, bunda uning shaxsiyati, o'zligi, ijodini yanayam yaqindan anglashga yordam beradigan jihat ekanligi namoyon bo'ladi.

“*Tanishuv*” qismida esa olimning maktablar uchun darsliklar yaratish ustidagi qizg'in ish jarayoni, darslikni o'quvchilar yoshiga mos badiiy asarlar bilan boyitish bilan band paytida xonadosh hamkasbi Barot Yarashning shoir Azim Suyunning bolalarga atalgan she'rlarini tavsiya qilgani, avvaliga olim bu ijodkorga ko'pam e'tibor bermagani, she'rlarini o'qib ko'rgach esa fikri tamoman o'zgarib, shoirning to'rt-beshta she'rlarini 6-sinf maktab darsligiga kiritganini xotirlaydi. Hamkasbi orqali shoir bilan yaqindan tanishishi barobarida uning olim bilan bo'lib o'tgan suhbat samimiy va foydali kechgani, eng qiziq tomoni darslikning Azim Suyun bilan bo'g'liq qismini o'quvchilar yaxshi qabul qilganini xotirlaydi.

Shu darslik bahona bo'lib ularning yaqinlashuvi do'stlikka aylanib ketib, shoirning ijodiga chuqurroq kirib, xalq tilida she'rlar yozish uning qon-qoniga singib ketganini olimning yozganlaridan bilish mumkin. Xalqona ohangda yoza-yotgan ijodkorlar o'zi sanoqli bo'lish bilan birga ular haqida, ularning asari haqida so'z aytish Q.Yo'ldoshev domla uchun yangilik emas. Chunki biz bilgan ko'plab yozuvchi va shoirlar o'z yozganlari tanqidchi olimning nazariga tushishini va munosabatini maxtal bo'lib kutishi tayin gap.

Ustoz bundan yigirma uch-yigirma to'rt yillar oldin o'zbek xalqining qadimgi “Alpomish” dostoni haqida “Alpomish talqinlari” da asarning chuqur tahlili orqali millat ko'ksini bir pog'ona yuqoriga ko'tarib qo'yganligini eslash kifoya qiladi. Asarning o'zbekona mohiyatini, udum va odatlarni o'ziga xos tarzda o'ta bilimdonlik bilan mardonavor ochib berishi o'zbek adabiyotida bir hodisa sifatida namoyon bo'lgan edi. Shuningdek, olimning Sirdaryoning elga mashhur shoirlari To'ra Sulaymon, Halima Xudoyberdiyeva va Hayot Shodmonlar ijodidagi chuqur donishmandlikni, falsafiy teranlik va kenglik ufurib turishini ko'plab tadqiqotlarida o'rin olganligi bilan qadrli. Ularning qadr-u qiymati bundan keyin ham oshsa oshadiki, hech yo'qolmasligini anglaymiz.

Adabiyotshunos olim ijodiga diqqat bilan nazar tashlaydigan bo'lsak, bu yo'nalishda ijod qiluvchi shoirlarga mehri bo'lakcha ekanligi, ular ijodiga

ko'nglining eng to'ridan joy bergani, ko'proq suyishi va bir pog'ona balandroq baholaganini tahlillaridan sezish mumkin.

Ko'ngil mulkiga yo'l. Qaynoqlar. Ushbu yo'nalishda ijodkor bolaligi haqida olim “...*Mening xomcho'timga ko'ra, dunyodagi ijodkorlarning to'qson foizi bir umr bolalik taassurotlarini qog'ozga tushiradi. Ularning eng yaxshi badiiy yaratishlari ham bolalik xotiralariga tayanib yozilgan bo'ladi....har bir chin ijodkor uchun bolalik o'tmishgina emas, balki hali to'lig'icha badiiy o'zlashtirilmagan kelajak hamdir, deb o'ylayman*” [Yo'ldoshev, 2025: 9]. deydi. Shoirning kimligini yana ham yaxshi bilish uchun ancha uzoqroqqa, ya'ni bolaligini – tug'ilganidan tortib, uning qay makon va qaysi muhitda tarbiya topganligiga ham bog'lik bo'lishidan ham bilish mumkin. “*Bo'lajak shoirning bolaligi go'zal va sirli go'shada, hali odamlar unchalar ham oyoqosti qilmagan tog'lar bag'rida o'tdi...*” [Yo'ldoshev. 2025: 9.]. Shoirning “minazi”(fe'li)dagi bolalarcha soflik, do'lvorlik, samimiylik kabi sifatlar “*oyoqosti qilmagan tog'lar bag'rida*” o'sib - ulg'ayganiga bir ishora bo'lsa, uning qadrdon jo'rasi Oltiboy hoji eslashi bo'yicha “o'ta chaqqon, sezgir va sinchkov...ko'zlari burgutniki kabi o'tkir, o'zi bo'riday soq bo'lgan”ligini ta'kidlab, bu sifatlar o'quvchi ko'z oldida o'z shoirni tasavvurida paydo qiladi.

Navbatdagi “Odamlar orasida” qismida esa Azim Suyunnig bolalarcha hamma narsaga qiziqishi, ota-onasi, bobosi va tor doiradagi yaxshi insonlar va atrofdagi aldoqchi insonlar borligini, qarama- qarshiliklar turganini seza boshlaydi. Bu jihatlar yosh bola ko'nglini birda o'ksitsa, birda qayg'uga botirardi. Lekin u yaxshi insonlarni yosh ko'ngil ko'zi bilan ularni izlardi. “Chekka bir qishloqdagi o'ta sokinday tuyuluvchi hayotning kutilmagan sinovlari bo'lajak shoirni o'ziga bildirmasdan toblab borar, uni tobora hayotga tayyorlab, ezgulikka, yaxshi odamlarga yovuqlshtirardi”, - deydi, Q.Yo'ldoshev.

Bo'lajak shoirning ro'za tutgani uchun maktabdan haydalishi va o'qishni yaxshi ko'rgani uchun, ro'zani yomonlab she'r yozib rayon gazetasida e'lon qilishi va maktabga qaytishi, keyinroq esa sinfkom, gazeta-jurnallarda she'rlari chiqib turgan, a'lochi, sinfboshi o'quvchini qishloq magazinidan o'quv qurollarini o'g'irlagan bolaga sherik qilishgani va o'qituvchilari ko'zi o'ngida tepkilashlari, sakkizinchi sinfni bitirib, shahodatnomani qo'lga olgan bolaning baholari pasaytirib tashlangani murg'ak bolaga nisbatan ochiq hiyonat qilishganini anglay boshlaydi. Boshqa tuman maktabiga ketib, o'ninchini a'lo baholarga tugatishi va bu voqeyalar shoir yodidan bir umrga esdan chiqmaydigan xotiraga aylangani “uning ijodida ham chuqur iz qoldirib, ijodining o'ziga xosligini ta'minlagan”nini xorirlaydi ustoz.

Azim Suyun hayotda qiyinchiliklar bilan, juda kechikib, armiya xizmatidan keyin jurnalistika fakultetining sirtqi bo'limiga o'qishga zo'rg'a ilinishi, yaxshi ustozlar nazari va o'zining kitobga o'chligi, bilimdonligi sabab ikkinchi kursdan kechki bo'limga o'tgani, kunduzlari qurilishda suvoqchi bo'lib ishlashi, uning



yurgan yo'llari doim ham ravon bo'lmaganini, lekin har doim unga yozgan she'rlari va bilimi yordamga kelgani, yuzaga chiqargani ta'kidlaydi olim.

“Do'stlikning uzun qisqa yo'li” deb atalmish qismida olimning shoir Azim Suyun bilan bo'lgan qadrdonligi uzun o'ttiz yillar davom etgan bo'lsa-da, bir-birlari bilan o'zaro yaqinlik, do'stlikka aylanib ketgan jo'ralik qisqa muddatda tugab qolganidan afsuslanish, qadrdon do'st qadri uni yo'qotgach bilinishi, diltortar suhbatlarning o'rnini hech narsa bosolmasligini o'kinib eslaydi.

Qozoqboy Yo'ldoshev shoir Azim Suyunga “yo'l odami” deb chiroyli ta'rif beradi, lekin olimning o'zi ham shoir bosgan yo'llarning ko'p qismini birga bosganligini, adib bilan birgalikda yurtning eng go'zal go'shalarini borib ko'rish nasib etganini, Toshkent va Samarqand shaharlarida, Poyariq tumanida, qadrdon qishlog'i Nakurda bo'lib o'tgan yubiley marosimlarining juda ko'tarinki ruhda tashkillashtirilganiga, unga hamisha omadyorligining guvohi bo'lgani, hatto qazoyi qadari yetganda shoirning uyiga tumonat odam yig'ilganini, marhumning so'nggi manzili qayerga bo'ishi ulug' insonlar, qardonlari tomonidan osongina hal etilishini “*Shoirga omad u hayotdan o'tgach ham yo'ldosh bo'ldi*” [Yo'ldoshev, 2025: 36] deya xotirlab yozadi. Shuningdek, shoirning ehson ma'rakasiga juda ko'p odam yig'ilgani uning omadyor ekanini ikkinchi bor bildirsa, ertasi kundan esa mamlakat bo'ylab virusga qarshi ommaviy karantin e'lon qilingani, ko'chaga chiqish ta'qiqlangani “*Shunda omad Azim akaga ayrim odamlardan ko'ra ko'proq sadoqat ko'rsatdi, deb o'yladim*”, - deya eslaydi xotira chizgilarida. [Yo'ldoshev, 2025: 36].

Xalqimizda bir maqol bor: “Ko'ngli ochiqning – yo'li ochiq” deganiday yuqoridagi ta'rif, tavsiflarga qo'shilgan holda, birovga yomonlik so'g'inmaydigan, tili va dili bir insonning ko'ngli qandayligini anglagan bo'lsak, “*O'zlik mulkiga yo'l*” deb atalgan ushbu so'qmoq siz bilan bizni Azim Suyun ko'ngliga bir qadar yaqinlashtirgan bo'lsa, demakki, bejiz yo'l bosmabmiz”, [Yo'ldoshev, 2025: 36] deydi olim.

Ijodning tikanakli yo'lida.

Yo'lga chiqqan jodkor inson to o'z manziliga yetguncha, mashaqqatlarlar chekishi Azim Suyunga ham begona bo'lmaganligi haqida adabiyotshunos olim “Mardlik saboqlari” deb nomlangan qismida shoirning “Bahodirning qilichi”, “Oq va qora”, “Darada”, “Bahodirsiz qaytdi arg'umoq”, “Tutqun”, “Dashtto'rg'ay”, “Shom shafag'i...”, “Ovchi o'limi” kabi she'rlarida yaxshilik va yomonlik, mardlik va qorqoqlik, umidlantirish – noumidlilik, shodlik – g'am kabi bir-biriga zid tushunchalarning kitobxonga rahm-shavqat, yuksaklik, kuch-qudratlilik, sabr-bardoshni baxsh etishiga yordam berishi tahlil qilinadi .

Ko'ngil kengliklari bo'ylab qismida adabiyotshunos olim shoirning “Men sizni sevaman” nomli she'ri sevgi haqida bo'lsa ham oshiq yurakning “... *bashar ahliga bo'lgan muhabbatini anglatadi*” desa, “Chegara bilmas she'r”ida esa tabiat hodisalari – daryolarning oqishi, bulutlarning ko'chishi, qushlarning yurtlar osha parvozlari chegara neligin bilmasligiga havas bilan boqadi, lekin yol'g'z

insongina Alloh yaratib qo'ygan hamma narsaga chegara qo'yishni, bu borada Haqni ham unitib qo'yib, o'zini yaratuvchi bilan teng qo'yishini ta'sirli o'xshatishlar bilan tasvirlaganini yorqin ko'rsatib beradi.

Q.Yo'ldoshev “**Alangali sevgi iqrorlari**”dagi “*Uning muhabbat lirikasida ifodalar yorqin, kechinmalar butun, tuyg'ular yombi kabi yirik, sezimlar toza o'zbekcha, hissiyotlar qo'l bilan ushlagudek aniq bo'lgan*” [Yo'ldoshev, 2025: 5] ligini:

*Seni tanidimu, muhabbat,
Qarg'adim ortdagi umrimni.
Seni tanidimu, muhabbat,
Qiziq... yashamagan ekanman...*

shu vaqtgacha yashab o'tgan umrini yashamaganga hisoblagan, benavo, baxtsiz oshiq tilidan aytilgan iqroynomani angelaydi, bu satrlarni teran tahlil qiladi olim. “*Seni tanidimu, muhabbat, Tanidim, tanidim o'zimni*” tarzidagi xulosa o'zlikka kelish yo'li faqat sevgi degan yuksak tuyg'u orqali ekanligini anglatishi bilan xotiraga mixlanib qoladi”, deb ta'riflaydi [Yo'ldoshev, 2025: 57].

Yana shu mavzudagi “Go'zal”, “Ohu”, “Muhabbat” deb nomlanuvchi she'rlarida ham sevgining ta'sir kuchi insonni tamoman o'zgartirib yubora olishi, hatto atrof-borliq ham faqat sevib qolgan inson ko'ziga boshqacha ko'rinishini muhabbatli ko'ngilning tilidan chuqur tahlil qiladi. Bu beixtiyor oshiq ko'ngilda qolib ketgan, erishilmagan, yetishmagan tuyg'ular bilan o'rtoqligini tuyadi.

Adabiyotshunos olim SHE'R, nasrdagi SO'Zni shu qadar nozik ko'ngil ko'zi bilan ilg'aydiki, she'r yoki asarni o'qimay, uning qangay yozilgani haqidagi tahlillardan tuyib qo'ysa ham bo'lar darajada. Masalan, muhabbat mavzusidagi she'rlar tahlili mumtoz adabiyot qoidalaridagi she'riy san'atlarga hamohangligi ko'rinadi: “*Muhabbat zerikarli va ransiz dunyoni qiziqarli va rangin qiladi. Ishq oshiqning nafaqat tuyg'ulari, balki tafakkuriga-da ko'tarinkilik bag'ishlaydi. Sevgidan mahrumlik sabab achchiq tuyulgan hayot qudug'idan suv icholmagan, shu sababdan rangi sariq shoir muhabbatga yo'liqishi bilan dunyo tamomila o'zgarib ketganday bo'ladi. Quduqning achchiq suvi shiringa, shoirning sariq ranggi qirmizga do'nadi*” [Yo'ldoshev. 2025: 67].

“**O'zgacha poetik tafakkur mahsuli**” qismida olim bizni shoir Azim Suyunning tamoman yangicha taffakur kengliklariga boshlaydi: “*Azim Suyun bitiklarida xalq og'zaki poeziyasidan kuchli ta'sirlangani holda o'z ijodiy qiyodasini saqlab qola bilgan shoir, ...so'nggi poetik mogikan*” [Yo'ldoshev, 2025: 72] degan teran bahosi o'qirmanlar ko'ngli bilan uyg'undir.

Shoirning kichik, pishiq misralarda katta fikr aytish tajribasi uning qayirma degan yangi janrni kashf qilganini, bu janr shoir ijodida anchagina kech paydo bo'lgani, bu jarayon esa ijodkorda qachon va qanday kechishi kerakligini “*...muayyan hayotiy va ijodiy tajriba bosqichlarini o'tab, yetarli turmush tajribasi va kerakli poetik mahorat orttirganidan keyin o'z ijodida yoniy yurak harorati bilan falsafiy fikrchanlikni uy'gunlashtira olish qudratiga ega bo'ladi*”

[Yo'ldoshev, Q. 2025: 74] deya qayirmalar ta'rifni kashf qiladi adabiyotshunos olim.

“**Ko'ngildagi Vatan suratlari**” qismida adabiyotshunos olim shoirning yangi janrga asos solishi, shoirning o'zgacha she'riy uslublari, “naturalist”ligi sabab tabiat bilan tillasha olishi, yurtiga bo'lgan chandon muhabbati sabab “Vatan fasllari” kitobidagi fasllarni to'rtta emas, balki beshta qilib belgilashi ancha shov - shuvga sabab bo'lsa-da, “*She'rlar bilan tanishilgach, shoir bu yaratiqlarni bitayotganda o'z ruhiy iqlimini ham bir fasl deb hisoblagani...yurt sevgisi beshinchi fasl sanalgan*”i bilan tanishgan kitovxon “*kuchli bir mantiq borligiga iqrar bo'ladi*”[Yo'ldoshev, 2025: 79].

Kitobda yana “**Jurnalistikaning chaqinli so'zlari**” qismida shoirning “O'zlik” publistik maqolalar to'plamida ham ijtimoiy-siyosiy mavzularga doir kuyunchaklik bilan yozilgan maqolalarga munosabat bildirilgan.

“**Shaxslik qo'rg'oniga yo'l**” qismida esa olimning shoir bilan shaxsiy tanishuvi – ish, xizmat jarayonidagi va tug'ilgan yurtiga, qishlog'i, o'qigan maktabida bo'lib o'tgan uchrashuvlar, sayr-u sayohat chog'ida, shoirning qarindoshlari, jo'ralari, hamqishloqlari bilan muloqotlar haqida olimning mulohazalari juda qiziqarli tarzda bayon etilgan.

Umuman olganda, adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshevning ko'rkam asarlarning jilvalari va ohangrabosini o'quvchiga ko'rsatishda, ularning gard bo'sib qolgandek ko'ringan ko'ngllarini tozartib, artilgan shishadek beg'ubor qilib qoyishdek mo'jiza egasi ekanligiga guvoh bo'lasiz.

Adabiyotlar:

1. Yo'ldosh, Qozoqboy, Azim Suyun shaxsiyati va ijodiy qiyofasiga chizgilar. Adabiyot nashriyoti. – T.: 2025. – B. 9–79.
2. Qozoqboy Yo'ldoshev. Yoniq so'z. Yangi asr avlodi. –T.: 2006. – B. 546.
3. Kuyliyeva, G. N. (2023). Character Imagery And Poetic Expression In Muhamed Ali's Tetralogy" Ulug 'Saltanat". *Confrencea*, 6 (6), 314-319.
4. Qo'yliyeva G. N. (2022). Interpretation of the image of said baraka in muhammad ali's tetralogy "ulug'saltanat". *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 430-432.
5. Qo'yliyeva, G. N. (2020). Plot Construction Image In Omon Mukhtars Trilogy "Tort Tomon Qibla. *Theoretical & Applied Science*, (5), 289-292.
6. Kuyliyeva, G., Saymuratova, I., & Jurakulov, S. (2024). Interpretation of man and universe in historical epics. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-9.
7. Sardor, J. (2024). Expression Of Mystical Images In Uzbek Storyworking. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 40-44.
8. Fayzullayeva, O. (2023). Lyric Image Of I In Cycles //Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 3), 118-125.



9. Faizullayeva, O. H. (2022). Artistic Conditionality and Poetic Function of Signs in Lyrical Series. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 14, 20-29.
10. Turaeva, D. Process Of Fiction Creativity And Writer's Skill. *Zbiyr artykułow naukowych recenzowanych*, 70.
11. To'rayeva, D. (2024). Badiiy asar boigrafiyasi bilimdoni. *Hamkor konferensiyalar*, 1(2), 67-70.
12. Nematullaevna, T. D. (2024). The Writer's Creative Laboratory And The Problem Of Aesthetic Interpretation. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 66-70.
13. Turayeva, D., Sariboyeva, M., & Primov, A. (2024). Fundamentals Of Creative Laboratory. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-7.
14. To'rayeva, D. (2024). Badiiy asar boigrafiyasi bilimdoni. *Hamkor konferensiyalar*, 1(2), 67-70.
15. Тураева, Д. Н., Саймуратова, И. Т., & Туйчиева, З. Х. (2024). ТВОРЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС И ОБРАЗЪ. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 198-202.
16. Nematullaevna, T. D. (2024). The Writer's Creative Laboratory And The Problem Of Aesthetic Interpretation. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 66-70.
17. Nematullaevna, D. T. (2022). Artistic interpretation of amir temursimge in national prose during the independence years (in the sample of the play “libra” (“mezonburji”) after asaddilmurod. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 426-429.
18. Gulchekhra, K. (2016). On the Specification of Trilogy “Good riddance” by Omon Mukhtor. // *Anglisticum. // Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 16-20.